



BIOSUBSTRATNING CUCUMIS SATIVUS L. O'SIB-RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

¹Xo'jamshukurov Nortoji Abdixalikovich., ²Avazova Oynabod Baratovna., ³Kuchkarova Dilafruz Xurramovna., ⁴Abdutilibov Muhridin Zuhridin o'g'li., ⁵Rustamov Muxammadrizo Raxmatjon o'g'li

¹Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy ishlab chiqarish markazi., ²Polimer kimyo va fizika instituti, Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy ishlab chiqarish markazi., ³Toshkent arxitektura qurilish universiteti., ⁴Andijon davlat universiteti., ⁵Toshkent kimyo texnologiya instituti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 3.06.2024
Qayta qabul : 14.06.2024
Saytda mavjud : 15.06.2024

Muallif (lar)

*N.A.Xo'jamshukurov
O.B.Avazova
D.X.Kuchkarova
M.Z.Abdutilibov
M.R.Rustamov

Muallif bilan aloqa



<https://orcid.org/0000-0001-7807-4737>



nkhujamshukurov@mail.ru

© N.A.Xo'jamshukurov va boshqalar
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida biogumusning bodring ko'chati o'sishi, rivojlanishi va sifatiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotlar davomida biogumus qulay agrofizikaviy va agrokimyoviy xossaga ega bo'lib, yopiq tuproq (issiqxona) sharoitida bodring ko'chati yetishtirishda tuproqning agrokimyoviy xossalarini yaxshilab o'simlik uchun optimal suv havo, va oziq sharoitini yaratadi uning ishtirokida yetishtirilgan ko'chatning morfologik belgilari an'anaviy issiqxona tuprog'i aralashmasida yetishtirilgan ko'chatga nisbatan yaxshilanishi qayd etilgan. Yopiq tuproq sharoitida bodring ko'chati yetishtirilganda ko'chatning suv havo va oziq rejimini yaxshilash uchun 1:9 nisbatda biogumus qo'shish taklif etilgan. Bir qism biogumusga 9 qism tuproq qo'shilgan variantda "Avitsena" navli bodring ko'chatining (n= 50) yerning usti qismidagi bo'yi $200,0 \pm 25,0$ mm ni tashkil etdi va bu ko'rsatgich biogumussiz ekilgan nazorat variantga nisbatan ancha yuqori ko'rsatgichni tashkil etgan.

Tayanch so'zlar: bodring, biogumus, substrat, issiqxona, Cucumis sativus L., Cucurbitaceae.

KIRISH. Bodring - jahonda eng katta hajmda yetishtiriluvchi sabzavot bo'lib, so'nggi yillarda unumdor yerlarning qisqarib borishi, tuproq va suvning sho'rlanish darajasi ortib borishi natijasida asosiy qishloq xo'jalik ekainlarining biriga aylandi [Liu et al., 2020; Naglaa Taha et al., 2020]. Bodring (*Cucumis sativus* L.) Cucurbitaceae oilasiga mansub muhim sabzavot ekini bo'lib, $2n = 14$ xromosoma soniga ega [Janapriya et al., 2010, Krug et al., 2002, Kubota et al., 2013].

Bodring janubiy Osiyoda, ayniqsa Shimoliy G'arbiy Hindistondagi Himoloyning issiq va nam iqlimida va Shimoliy Afrikada joylashgan davlatlarda katta miqdorda yetishtiriladi. Bu davlatlarning iqlim sharoiti yuqori harorat, namlik va yorug'lik intensivligida etarli miqdorda suv va ozuqa moddalari bilan yetishtirishning unumdorlik talablariga mos keladi. Hindistonda bodring yetishtirish kamida miloddan avvalgi 3000 yil oldin va Xitoyda 100 yil oldin yetishtirish boshlanganligi qayd etilgan [Arunabha Pal et al., 2020].

Bodring jahonda eng ko'p issiqxonalarda yetishtiriladigan o'simlik hisoblanib [Sharma et al., 2018, Singh, 2005, Bairagi et al., 2013, Egel, 2015, Fernandes et al., 2002], bodringning issiqxonalarda yetishtirish jarayonidagi o'sib-rivojlanishi, uning fiziologiyasi, biokimyosi hamda hosildorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida juda ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilganligi bilan xarakterlanadi [Sharma et al., 2018, Savvas et al., 2013]. Ammo, ilmiy manbalarda bodringni issiqxonalarda yetishtirish jarayonida og'ir metallarning migratsiyasiga biogumusning ta'siri va bodring mevasidagi nitratlarning harakatchanligi bo'yicha yetarli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan [Khujamshukurov et al., 2022 a,b].

Shu boisdan mazkur tadqiqot ishida biogumusning bodring ko'chatini o'sishi, rivojlanishi va sifatiga ta'siri o'rganildi.

Foydalanilgan manba va materiallar. Ishning ushbu bosqichida organik o'g'it,

biogumusning yopiq tuproq sharoitida substratning agrokimyoviy ko'rsatgichlari, bodring ko'chatini o'sishi va rivojlanishiga ta'siri issiqxona sharoitida "Avitsena" F1 navli bodring ko'chatini yetishtirish davomida aniqlandi. Tadqiqotlarda tajriba sxemasi bilan farqlanuvchi, amalda keng qo'lanilib kelinayotgan mavjud texnologiyadan foydalanildi. Ushbu texnologiya bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda substratga mineral o'g'itlarni qo'shishni uni tuvaklarga solishdan ikki hafta oldin amalga oshirildi. Tegishli miqdordagi biogumusni qo'shish esa uni tuvakga solish oldidan bajarildi. Ekiladigan bodring urug'i 1 soat davomida 1%li $KMnO_4$ eritmasida ivitilib oqib turgan suvda yuvilgandan so'ng suyultirilgan (1:50 nisbatda) Na_3RO_4 eritmasida 1 sutka davomida ushlab turildi. Ekish davriga kelib asosiy qismi kurtak chiqarib qolgan urug' donalari hajmi 500 ml bo'lgan to'vaklarga ekildi. Ko'chatni joylashtirish zichligi har kvadrat metrga 45 donani tashkil etib, ular unib chiqqancha yorug'lik o'tkazuvchi polietilen plyonka bilan yopib qo'yildi. Ko'chatni o'nib chiqish davrida harorat $25-28^{\circ}S$ oralig'ida ushlab turildi. Ko'chat unib chiqish boshlanishi bilan plyonka ochib tashlandi va harorat $22-24^{\circ}S$ gacha pasaytirildi. Birinchi uch kun davomida ko'chat turgan joy qo'shimcha yoritib qo'yildi (texnologiyaning bu bosqichi qish faslida quyosh radiatsiyasi past bo'lgan sharoitlarda zarur). Qolgan kunlarda 12-16 soat davomida yoritildi va tajriba maydonining yoritilganlik darajasi 4-5ming lyuksni tashkil etdi. Sutkaning qorong'ilik davrida havo harorati $19-20^{\circ}S$ da saqlandi. Ko'chatni teplitsadagi doimiy joyiga ko'chirish 30 kundan keyin amalga oshirildi. Bodring ko'chatining sifati uning keyingi hosildorligiga keskin ta'sir etadi. Geysler

T. va boshqalarning [Geysler T., 1979] ishlarida ko'rsatilganidek uning ko'rsatgichlari ekish oldidan o'rtacha qo'yidagi kattaliklarga ega bo'lishi kerak: bo'yi 20-25 sm, haqiqiy barglar soni 4-5 ta, bo'g'inlarning uzunligi 3-5 santimetr gacha bo'lib umumiy massasi 20-30 gramm gacha. Tomirlari turli kasalliklardan holi bo'lgan holda oq rangga ega bo'lishi kerak.

Nazorat varianti sifatida tarkibida yetarli miqdorda mineral shakldagi oziq elementlari mavjud bo'lgan va hozirgi kunda ko'pchilik katta issiqxonalarda keng ishlatiladigan 1:1 nisbatdagi tuproq – yog'och qirindisi aralashmasidan foydalanildi. Nazorat variantiga boshlang'ich aralashma tarkibida oziq elementlar miqdorini optimal qiymatlarini ta'minlash maqsadida mineral o'g'itlardan (ammiakli selitra, qo'sh superfosfat va kaliy sulfatdan) foydalanildi. Tajribalarda 1 m³ boshlang'ich aralashmaga 600 g ammiakli selitra, 125 g granullangan qo'sh superfosfat, 455 g kaliy xlorid va 115 g magniy sulfat tuzlari qo'shildi.

Ko'chatining rivojlanishiga biogumus miqdorini ta'siri, agrokimyoviy tahlillar bilan birga o'tkazilgan fenologik kuzatuvlar va biometrik tadqiqotlar yordamida aniqlandi [Dospexov B.A., 1985].

Tadqiqot natijalari va ularning muxokamasi. Tajribalarda bodring urug'i turli variantlar bo'yicha tuproq - yog'och qirindisi - biogumus aralashmasi bilan to'ldirilgan to'vaklarga 2019 yil 15 dekabrda, 2020 yil 19 dekabrda va 2021 yil 17 dekabrda ekildi. Ko'chat urug' tuvakga ekilgan kundan boshlab 2-3 kunda yapposiga bir xilda unib chiqa boshladi. Ko'chatining fenologik kuzatish natijalari 1-jadvalda keltirilgan bo'lib boshlang'ich (fenofaz) o'tish davrida tajriba variantlaridagi o'simliklarda sezilarli farq kuzatilmadi.

1-jadval

Bodring ko'chatini o'sishi va rivojlanishi davridagi fenologik kuzatish natijalari

Tajriba varianti	O'tgan kunlar soni			
	urug' ekilgandan boshlab....			
	Ko'chat unib chiqib boshlaguncha	Ko'chatning yoppasiga unib chiqqunigacha	urug'-barg fazasigacha	1-haqiqiy bargning hosil bo'lish fazasigacha
Nazorat	3	4	8	9
Sub-90:biog-10	3	4	7	9
Sub-80:biog-20	3	4	7	9
Sub-70:biog-30	3	4	7	8
Sub-60:biog-40	2	2	7	8
Sub-50:biog-50	2	2	7	8
Sub-40:biog-60	2	2	7	8
Sub-30:biog-70	2	2	7	8
Sub-20:biog-80	3	3	7	9
Sub-10:biog-90	3	3	7	9
biog-100	3	3	7	9

Ko'chatning rivojlanish davridagi biometrik kuzatish natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Aralashma tarkibidagi biogumus maqдорini bodring ko'chatining biometrik ko'rsatgichlariga ta'siri

№	Substrat tarkibi, % hajm	Poya balandligi, sm	Er ustki qismning massasi, g	Barglar soni, dona	Barg yuzasi, sm ²	Tomirini uzunli gi, sm	Tomir massasi, g	K* -zili g/sm ³
4 kunda								
1	Substrat	2,9	1,6	0,6	55,5	5,2	0,7	0,44
2	Nazorat	3,8	2,3	0,7	60,1	5,7	0,8	0,35
3	Sub-90:biog-10	4,0	2,4	0,7	67,4	5,7	1,0	0,42
4	Sub-80:biog-20	4,6	2,7	0,8	72,6	5,9	1,1	0,41
5	Sub-70:biog-30	6,0	3,6	1,1	112,9	6,3	1,2	0,33
6	Sub-60:biog-40	6,6	3,9	1,2	143,8	6,4	1,3	0,33
7	Sub-50:biog-50	6,5	3,8	1,1	129,1	5,5	1,2	0,32
8	Sub-40:biog-60	6,4	3,8	1,1	120,2	5,4	1,0	0,26
9	Sub-30:biog-70	6,0	3,4	1,0	112,8	5,3	0,9	0,26
10	Sub-20:biog-80	5,7	3,2	1,0	111,8	5,1	1,0	0,31
11	Sub-10:biog-90	5,7	3,1	0,9	102,8	5,2	0,9	0,29
12	biog-100	5,5	3,0	0,9	90,6	4,6	0,7	0,23
8 kunda								
1	Substrat	7,3	4,0	1,1	114,4	9,9	1,3	
2	Nazorat	9,7	5,7	1,3	123,8	10,9	1,5	0,33
3	Sub-90:biog-10	10,2	6,0	1,3	138,9	10,9	1,8	0,33
4	Sub-80:biog-20	11,7	6,8	1,5	149,6	11,3	1,9	0,33
5	Sub-70:biog-30	15,4	9,0	1,9	232,6	12,0	2,0	0,33
6	Sub-60:biog-40	16,8	9,8	2,1	296,2	12,2	2,0	0,33
7	Sub-50:biog-50	16,6	9,5	2,0	266,0	10,5	1,7	0,33
8	Sub-40:biog-60	16,4	9,4	2,0	247,7	10,2	1,7	0,33
9	Sub-30:biog-70	15,4	8,5	1,8	232,5	10,1	1,7	0,33
10	Sub-20:biog-80	14,7	8,0	1,7	230,3	9,6	1,7	0,33
11	Sub-10:biog-90	14,7	7,9	1,7	211,7	9,9	1,7	0,33
12	biog-100	14,1	7,5	1,6	186,6	8,8	1,2	0,33
12 kunda								
1	Nazorat	11,9	6,5	1,8	175,1	17,3	1,9	0,29
2	Sub-90:biog-10	15,8	9,2	2,1	189,4	19,0	2,2	0,24
3	Sub-80:biog-20	16,7	9,8	2,2	212,6	19,0	2,5	0,28
4	Sub-70:biog-30	19,0	11,1	2,4	228,9	19,8	2,8	0,25
5	Sub-60:biog-40	25,2	14,7	3,1	355,9	20,7	3,0	0,20
6	Sub-50:biog-50	27,3	16,0	3,4	453,2	21,1	3,4	0,19
7	Sub-40:biog-60	27,0	15,5	3,3	407,0	18,4	2,8	0,17
8	Sub-30:biog-70	26,8	15,4	3,3	378,9	17,8	2,7	0,16
9	Sub-20:biog-80	25,1	13,8	2,9	355,7	17,6	2,6	0,18
10	Sub-10:biog-90	23,9	13,1	2,8	352,4	16,8	2,5	0,19
11	biog-100	23,9	12,8	2,8	323,9	17,4	2,5	0,19
12	Nazorat	22,9	12,2	2,7	285,5	15,4	1,8	0,15
16 kunda								
1	Substrat	17,4	9,6	2,7	227,6	26,4	2,8	
2	Nazorat	23,0	13,6	3,1	246,3	29,0	3,2	0,29
3	Sub-90:biog-10	24,4	14,4	3,3	276,3	28,9	4,0	0,24
4	Sub-80:biog-20	27,8	16,4	3,6	297,6	30,1	4,2	0,28
5	Sub-70:biog-30	36,7	21,6	4,7	462,7	32,0	4,5	0,26
6	Sub-60:biog-40	39,9	23,6	5,1	589,1	32,4	4,5	0,21

7	Sub-50:biog-50	39,5	22,8	5	529,1	28,0	3,9	0,19
8	Sub-40:biog-60	39,1	22,6	4,9	492,6	27,1	3,8	0,17
9	Sub-30:biog-70	36,7	20,3	4,4	462,3	26,7	3,7	0,17
10	Sub-20:biog-80	34,9	19,3	4,2	458,1	25,6	3,8	0,18
11	Sub-10:biog-90	34,9	18,8	4,1	421,0	25,9	3,8	0,19
12	biog-100	33,5	18,0	4	371,1	23,4	2,7	0,2
20 kunda								
1	Substrat	23,5	13,0	3,7	261,7	33,0	3,5	0,27
2	Nazorat	31,1	18,3	4,2	283,2	36,3	4,0	0,22
3	Sub-90:biog-10	32,9	19,4	4,4	317,8	36,1	5,0	0,26
4	Sub-80:biog-20	37,5	22,1	4,9	342,2	37,6	5,2	0,24
5	Sub-70:biog-30	49,6	29,2	6,3	532,1	40,0	5,6	0,19
6	Sub-60:biog-40	53,9	31,8	6,9	677,5	40,5	5,6	0,18
7	Sub-50:biog-50	53,3	30,8	6,7	608,5	35,0	4,8	0,16
8	Sub-40:biog-60	52,8	30,5	6,6	566,5	33,9	4,7	0,15
9	Sub-30:biog-70	49,5	27,4	5,9	531,7	33,2	4,6	0,17
10	Sub-20:biog-80	48,1	26,0	5,7	526,8	33,7	4,7	0,18
11	Sub-10:biog-90	47,1	25,4	5,6	484,2	33,7	4,7	0,19
12	biog-100	45,2	24,3	5,4	426,8	28,8	3,4	0,14
24 kunda								
1	Substrat	23,5	13,0	3,7	261,7	33,0	3,5	0,27
2	Nazorat	31,1	18,3	4,2	283,2	36,3	4,0	0,22
3	Sub-90:biog-10	32,9	19,4	4,4	317,8	40,5	5,0	0,26
4	Sub-80:biog-20	37,5	22,1	4,9	342,2	40,0	5,2	0,24
5	Sub-70:biog-30	49,6	29,2	6,3	532,1	37,6	5,6	0,19
6	Sub-60:biog-40	53,9	31,8	6,4	677,5	36,1	5,6	0,18
7	Sub-50:biog-50	53,3	30,8	6,3	608,5	35,0	4,8	0,16
8	Sub-40:biog-60	52,8	30,5	6,2	566,5	33,9	4,7	0,15
9	Sub-30:biog-70	49,5	27,4	6,0	531,7	33,2	4,6	0,17
10	Sub-20:biog-80	47,1	26,0	5,8	526,8	33,7	4,7	0,18
11	Sub-10:biog-90	47,1	25,4	5,7	484,2	33,7	4,7	0,19
12	biog-100	45,2	24,3	5,7	426,8	28,8	3,4	0,14

Substrat*:-1:1 nisbatdagi tuproq+yog‘och qirindisi aralashmasi; Nazorat varianti*: tuproq+yog‘och qirindisi (1:1)+N₁₅₀P₄₀₀K₃₀₀+mikroelementlar; K*: -tomir va o‘simlik massasini o‘zaro nisbati, g.

2-jadvalda keltirilgan biometrik kuzatish natijalariga ko‘ra turli aralashmalarda yetishtirilgan bodring ko‘chati rivojlanishida o‘zaro farq mavjud bo‘lib, unga ko‘ra tarkibida 30-60 % biogumus saqlagan aralashmalardagi o‘simlik poyasining uzunlaga, massasi, barg soni va barg yuzasi eng katta qiymatga ega. Ko‘chat rivojlanishining boshlang‘ich urug‘ barg bosqichida (birinchi 8 kunda) substrat tarkibida 40% biogumus bo‘lgan oltinchi variant bo‘yicha yetishtirilgan ko‘chat eng uzun bo‘yga (16,8 sm), katta barg yuzasiga (296,2 sm²), ko‘p xo‘l massaga (9,8 g) va yaxshi rivojlangan tomir sistemasiga (2 g, 12,2 sm) ega bo‘ldi.

Ko‘chat davrining oxirida (uchinchi 8 kunda) o‘tkazilgan biometrik kuzatish natijalariga ko‘ra biogumusni 10-40% oraliq‘ida substrat tarkibidagi uning miqdori bilan o‘simlikning bo‘yi (korrelyatsiya koeffitsienti, g=0,96), massasi (t=0,93) barglari soni (t=0,95) va yuzasi (g=0,96) orasida to‘g‘ri chiziqli bog‘lanish kuzatilgan. Substrat tarkibidagi biogumus miqdori bilan markaziy tomirning uzunligi va uning massasi orasidagi bog‘lanish substrat tarkibidagi biogumusning 20-50% oraliq‘ida to‘g‘ri chiziqli xarakterga ega ekanlig qayd etildi.

Tarkibida 40-100% gacha biogumus bo'lgan substratda o'stirilgan ko'chatning uzunligi tajribaning birinchi 8 kunida kontrol varintdagi o'simlikning bo'yidan tegishli 1,45-1,73 martaga baland. Ko'chat ekilgandan 20 kun o'tgach bir qism biogumusga bir qism tuproq+yog'och qirindasi (1:1) aralashmasi qo'shilgan 7-variantda "Avitsena" navli bodring ko'chatining (n=50) yerning o'sti qismidagi bo'yi 533 mm ni tashkil etdi va bu ko'rsatkich biogumussiz ekilgan nazorat variantiga nisbatan 1,71 martaga yuqori ko'rsatgichni tashkil etadi. Tajribaning 20-kuniga kelib substrat tarkibidagi biogumus miqdorini 40%dan 80%gacha ortishi o'simlik bo'yining balandligini keskin o'zgarishiga olib kelmagan holda (40% da 53,9 sm, 80% da 48,1 sm) biogumusni 90-100 % li variantlarida ko'chatni bo'yini nisbatan past (100% biogumusda 45,2 sm) bo'lishi kuzatildi.

Ko'chatning rivojlanish tezligining tahlili bodringning barg yuzasini eng ko'p o'sishi tarkibida 40-60% biogumus bo'lgan variantlarga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

Ekish oldidan biometrik ko'rsatkichlari optimal, ya'ni yerning pastki va o'stki qismlari o'zaro proporsional rivojlangan ko'chatlar ham tarkibida 40 dan 60% gacha biogumus bo'lgan variantlarda olindi.

Tajribalarda turli variantlarda yetishtirilgan bodring ko'chatlaridagi barglarni o'rtacha soni o'zaro keskin farqlanmadi. Tajribaning birinchi to'rt kunidagi barglar soni 0,7-1,2 dona va 20-kunida 4,2-6,9 donaga teng bo'ldi. Ammo biogumus qo'shilgan variantlarda birinchi haqiqiy bargni paydo bo'lishi nazorat variantiga nisbatan ikki kunga tezlashdi.

Biogumusning substratdagi 10-20% lik past konsentratsiyalarida o'simlik bargining rivojlanishi sekin bo'ldi. 10% biogumus bo'lgan ikkinchi variantida tajribani 14-kunidan, 20% biogumus bo'lgan uchinchi variantda esa 18-kundan boshlab ko'chatning bargi sarg'ish rangga kira boshladi. Boshlang'ich ikkita haqiqiy barglar hosil

bo'lish davrida tarkibida 70-80% biogumusli substratda o'stirilgan bodring ko'chatining bargi nisbatan kichikroq o'lchamli to'q yashil rangga ega bo'ldi.

Substrat tarkibidagi biogumusning miqdori 60% va undan yuqori holatlarida ko'chat barglarining yuzasi biogumus miqdori 40-50% li nazorat varintidagi barglar yuzasiga teng yoki undan kichik bo'lgan holda ko'chatlardagi barglarning soni deyarli o'zgarimasdan qoldi. Demak, toza biogumusdan foydalanish va uning substratdagi miqdorini 50% dan oshirish sifatli bodring ko'chatini olishga imkon bermaydi.

O'simlik bo'yi bilan uning barg yuzasining kattaligi o'zaro proporsional holda oshib boradi. Tajribalarda o'simlikni bo'yiga o'sishi qanchalik katta bo'lsa uning barg yuzasini oshishi shunchalik ko'p bo'ldi va ushbu jarayondagi maksimal qiymatlarga substrat tarkibidagi biogumusning 40-50 % lik qiymatlarida erishildi. Tarkibidagi biogumusning miqdori 30-50 % lik aralashmada o'stirilgan ko'chatlar barg yuzaning eng yaxshi rivojlanishi ($532,1-677,5 \text{ sm}^2$) va o'simlik massasini kattaligi (29,2-31,8 g) bilan ajralib turadi (2-jadval).

O'tkazilgan tadqiqotlarda oltinchi variant (40% biogumus) bo'yicha yetishtirilgan ko'chatlar o'z ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi parametrlarga ega bo'ldi va boshqa variantlardan ajralib turdi. Bu variantdagi ko'chatlarning barg yuzasi katta va intensiv yashil rangga ega, tanasi yaxshi rivojlangan hamda kuchli tomir sistemasiga ega. Beshinchi variant (30% biogumus) bo'yicha yetishtirilgan ko'chatlarni o'sishi asosiy joyga ko'chirib o'tkazish davriga kelib nisbatan sekinlashdi. Bu ko'chatlarning barglari kuchsiz yashil rangga kirib oziq

elementlarining yetishmasligi sezila boshladi.

Bodringning tomiri yerning yuza qismida joylashganligi uchun oziq rejimiga talabchan bo'lganligi sababli issiqxona sharoitida bodring ko'chati yetishtirishda organik o'g'it biogumusdan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlarda bodring ko'chati tomir sistemasini rivojiga aralashma tarkibidagi biogumus miqdori ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar tuproq-yog'och qirindisi aralashmasiga mineral o'g'itlar qo'shib tayyorlangan nazorat variant bo'yicha yetishtirilgan ko'chat eng kuchsiz tomir sistemasiga ega bo'lishini ko'rsatdi. 20 kunlik ko'chat tomirining uzunligi 33 sm ga va massasi 3,5 g ga teng. Bu holat ko'chatni rivojlanishining boshlang'ich bosqichlarida substrat tarkibida ammoniyli azotning yetarlicha yuqori konsentratsiyada bo'lishi ko'chat tomir sistemasini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. Tarkibida 10-20% biogumusli substratdan foydalanilgan variant bo'yicha yetishtirilgan ko'chatlarning oxirgi bosqichlardagi rivojlanishi ancha kuchsiz bo'lib, biogumusning bu qiymatida ko'chatning markaziy tomirining rivojlanish avtivligi kuchsiz ortishi kuzatiladi.

Bu variantdagi o'simlik tomirining oxirgi 4 kundagi kundalik o'sish tezligi 2,5-2,9 sm ni tashkil etadi. Yon tomirlarning eng yaxshi rivojlanishi tarkibida 30-70% biogumus saqlagan aralashmalarga to'g'ri keldi. Bu holatni substrat tarkibidagi oziq elementlar miqdorini yuqori bo'lishi bilan tushuntirish mumkin. Substrat tarkibidagi biogumus miqdorini keyinga ortishlarida o'simlik tomir sistemasida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi.

Tadqiqotlarda substrat tarkibidagi biogumusning yuqori konsentratsiyalarida bodring o'simligining tomir qismi kam rivojlangan holda uning vegetativ massasini intensiv ortishi kuzatildi. Bu holat substrat tarkibidagi o'simlikning yer yuzasidagi qismini rivojlanishini kuchaytiruvchi oziq

elementlarining yuqori konsentratsiyasi bilan bog'liq.

O'simlikning tomiri massasini ortib borishi substrat tarkibidagi biogumus miqdoriga to'g'ri proporsional va uning eng yuqori qiymatlariga (5,6 g) substratdagi biogumusning 30-40%li variantlarida erishildi .

Biogumus ishlatilgan barcha variantlarda 3-bargdan so'ng gul paydo bo'ldi. Nazorat variantda esa hosil 4-bargdan keyin paydo bo'ladi. Demak biogumusdan foydalanish o'simlikni nafaqat o'sishini balki uni hosilga kirishini ham tezlashtiradi. 4-jadvalda keltirilgan biometrik kuzatish natijalaridan biogumusdan foydalanib bodring ko'chati yetishtirilganda ishlatilgan substratning tarkibidagi organik o'g'itning optimal qiymati 40% ga teng bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Biogumusning miqdorining keyingi qo'shilgan qiymatlari ko'chat sifatini yanada yaxshilanishiga olib kelmadi. Shu sababli uni miqdorini 40% qiymatdan oshirish maqsadga muvofiq emas deb hisoblash mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar biogumusdan foydalanilgan variantlarda o'simlikni turli kasalliklarga chidamliligi oshganini ko'rsatdi.

Biogumus tuproqdagi mikrobiologik jarayonlarni kuchaytirganligi uchun o'simlikni karbonat anhidridi bilan oziqlanishini yanada yaxshilaydi. bodringni barg yuzasini katta bo'lishi biogumusdan foydalanilganda uni boshqa o'simliklarga nisbatan ko'proq karbonat anhidridini o'zlashtirishini taminlaydi [Bрызгалов, 1983].

Shunday qilib o'tkazilgan uch yillik tadqiqotlar natijasida qo'yidagi xulosalarni qilish mumkin: tarkibida 30-50% biogumus bo'lgan substratdan foydalanish o'simlik bo'yini qisman kamaytirgan holda uning bargi yuzasini

oshirishga, uning yer o'stidagi qismi va tomirining massasini ko'payishiga olib keladi. Bu o'g'it o'simlikni keyingi optimal rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'simlik tarkibining kimyoviy nazorati. Bodring ko'chati holatini muhim ko'rsatgichlaridan biri o'simlikning turli organlari tarkibidagi oziq moddalari zahirasi hisoblanadi. Shu sababli biometrik kuzatishlar

bilan bir qatorda ko'chat tarkibidagi mineral formadagi oziq elementlar va ularning yalpi miqdori nazorat qilindi. Tahlillar amaliyotda keng foydalaniladigan kimyoviy tahlil usullaridan foydalanib olib borildi. Tajriba natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Urug' barg fazasidagi bodring ko'chati o'simlik massasi tarkibidagi noorganik formadagi oziq elementlar miqdori, mg/100 g (o'rtacha 2019-2021 yillar uchun)

№ p/p	Variantlar	Oziq elementlar miqdori, mg/100g				
		N-NO ₃	N-NH ₄	N	R ₂ O ₅	K ₂ O
1	Tuproq:opilka=1:1(subst.)	21,5	6,0	27,5	60,6	354,6
2	Nazorat: tup.+opilka=1:1+NPK	40,5	11,4	51,9	294,5	554,6
3	Subst.90%+ biogumus 10%	28,5	8,6	37,1	106,0	472,5
4	Subst.80%+ biogumus 20%	30,1	10,8	40,9	126,4	497,8
5	Subst.70%+ biogumus 30%	33,3	11,3	44,6	147,7	526,3
6	Subst.60%+ biogumus 40%	33,9	14,4	48,3	166,8	551,5
7	Subst.50%+ biogumus 50%	36,9	14,9	51,8	184,3	573,4
8	Subst.40%+ biogumus 60%	39,3	15,6	54,9	201,9	592,6
9	Subst.30%+ biogumus 70%	41,4	16,0	57,4	214,4	606,1
10	Subst.20%+ biogumus 80%	43,4	16,6	60,0	225,0	614,5
11	Subst.10%+ biogumus 90%	44,7	17,2	61,9	236,5	621,8
12	Biogumus 100 %	45,1	17,5	62,6	243,1	627,7

3-jadvalda keltirilgan tajriba natijalaridan ko'chat tarkibidagi mineral shakldagi oziq moddalar va substrat tarkibi orasida ma'lum bog'liklik mavjud ekanligini kuzatamiz. Tuproq-yog'och qirindisi aralashmasiga NPK qo'shib tayyorlangan nazorat variantiga yetishtirilgan urug' barg bosqichidagi ko'chatning 100 g xo'l massasi tarkibida N-NO₃+N-NH₄ – 51,9; R₂O₅ – 294,5; K₂O – 554,6 milligrammga teng bo'lib NPK qo'shilmasdan faqat tuproq- yog'och qirindisi fonida yetishtirilgan ko'chatni tarkibidagi azotdan 1,88, fosfardan 4,85 va kaliydan 1,56 martaga yuqori ekanligi qayd etildi.

Biogumusdan foydalanilgan variantlardan o'simlik tarkibidagi eng kam NPK miqdori 10% biogumus 90% tuproq- yog'och qirindisi aralashmasiga ega bo'lgan variantga to'g'ri keldi. Bu variant bo'yicha o'stirilgan o'simlikning 100 g xo'l massasi tarkibida N-NO₃+N-NH₄ – 37,1; R₂O₅ – 106,0; K₂O – 472,5 mg miqdorini tashkil etadi.

Tajriba variantlariga mos ravishda substratdagi biogumus miqdorini ortib borishi bilan o'simlikning 100 g ho'l massasi tarkibidagi oziq elementlarini doimiy ortib borishi kuzatiladi. Ammo biogumus miqdorini yuqori qiymatlarida

(50% va undan yuqori) o'simlik oziq elementlarga to'yinib boradi. Oltinchi va yettinchi variantlar orasidagi kaliyning farqi 21,9 g.ga sakkizinchi va to'qqizinchi variantlar orasida 13,5 ga o'ninchi va o'n birinchi variantlar orasida 5,9 ga teng. Xuddi shunday bog'lanish azot va fosforda ham kuzatiladi. Variantlar bo'yicha farqlar ko'chat davrining oxirigacha saqlanadi.

Uchta haqiqiy barg fazasida bodring o'simligining ayrim organlaridagi oziq elementlar bo'yicha qo'yidagi qonuniyatlari kuzatildi: nitrat ko'rinishidagi azot barg bandida barg plastinkasidan ko'proq; ammoniy shaklidagi azot, fosfor va kaliy barg plastinkasida barg bandiga nisbatan ko'proq (4-jadval) ekanligi aniqlandi.

Bargning bo'g'inining barg plastinkasiga nisbatan o'g'it dozasini o'zgarishiga sezgirligi yuqori bo'ladi. U ko'chatga beriladigan o'g'it dozasi o'zgarishini aniq ifodalaydi, shu sababli undan issiqxona sharoitida bodring o'simligini

NPK bilan taminlanganlik darajasini nazorat qiluvchi organ sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'tkazilgan turli fazalardagi o'simlik tarkibining tahlili issiqxona sharoitida biogumusdan foydalanib ko'chat yetkazishda 5-7- variantlarda oziq elementlarining tegishli zarur nisbatlari ta'minlanganini ko'ramiz. Bundan eng optimal qiymatlar 6-variantda ta'minlangan. Biogumusning rN qiymati kuchsiz kislotaga va kuchsiz asos oraliqida bo'lib, u tuproqda o'simlikka kasallikka chidamli muhit yaratadi. Biogumusning tarkibida mavjud bo'lgan biologik aktiv moddalar tuproqning agrokimyoviy xossalarini yaxshilab urug'ni unib chiqishini tezlashtirishga va ko'chatni ko'chirib ekilgandan keyingi rivojlanishini yaxshilashga imkon beradi [Kasatikov, Kasatikova, 2002].

4-jadval

Uchta haqiqiy barg fazasidagi bodring ko'chati o'simlik massasi tarkibidagi noorganik formadagi oziq elementlar miqdori, mg/100 g (o'rtacha 2019-2021 yillar uchun)

№ p/p	Variantlar	Oziq elementlar miqdori, mg/100g				
		N-NO ₃	N-NH ₄	N	R ₂ O ₅	K ₂ O
Uchta haqiqiy barg fazasida (barg plastinkasida)						
1	Tuproq: yog'och qirin=1:1(subst.)	18,6	9,1	27,7	85,5	547,9
2	Nazorat: tup+yog'och qir=1:1+NPK	24,3	14,0	38,3	116,6	690,5
3	Subst.90%+ biogumus 10%	19,6	9,3	28,9	90,4	620,5
4	Subst.80%+ biogumus 20%	21,8	11,0	32,8	94,6	634,0
5	Subst.70%+ biogumus 30%	22,7	12,2	34,9	98,5	642,4
6	Subst.60%+ biogumus 40%	23,6	13,5	37,1	103,6	663,8
7	Subst.50%+ biogumus 50%	25,3	14,3	39,6	111,8	681,6
8	Subst.40%+ biogumus 60%	26,8	15,5	42,3	123,5	714,8
9	Subst.30%+ biogumus 70%	28,4	16,8	45,2	131,4	748,5
10	Subst.20%+ biogumus 80%	31,3	17,9	49,2	138,7	778,6
11	Subst.10%+ biogumus 90%	32,1	18,6	50,7	143,0	810,1
12	Biogumus 100 %	33,0	18,9	51,9	148,5	821,9
Uchta haqiqiy barg fazasida (barg bandida)						
1	Tuproq: yog'och qirin=1:1(subst.)	26,5	8,1	34,6	47,7	451,5
2	Nazorat: tup+yog'och qirin = :1+NPK	37,0	13,9	50,9	59,0	567,0
3	Subst.90%+ biogumus 10%	32,1	10,3	42,4	51,1	514,5
4	Subst.80%+ biogumus 20%	33,1	11,1	44,2	52,3	526,2
5	Subst.70%+ biogumus 30%	34,2	12,0	46,2	53,4	535,9
6	Subst.60%+ biogumus 40%	35,0	12,9	47,9	54,6	543,0
7	Subst.50%+ biogumus 50%	36,2	13,7	49,9	55,4	552,8
8	Subst.40%+ biogumus 60%	38,2	14,2	52,4	56,9	562,0
9	Subst.30%+ biogumus 70%	39,3	15,1	54,4	58,2	571,0
10	Subst.20%+ biogumus 80%	40,6	16,0	56,6	60,1	579,7
11	Subst.10%+ biogumus 90%	42,0	16,9	58,9	61,9	589,4
12	Biogumus 100 %	43,8	17,3	61,1	63,0	597,8

Biogumus qulay agrofizikaviy va agrokimyoviy hossaga ega bo'lib yopiq tuproq sharoitida bodring ko'chatlari yetishtirishda tuproqning agrokimyoviy xossalari yaxshilab o'simlik uchun optimal suv havoni yaratadi uning ishtirokida yetishtirilgan ko'chatning morfologik belgilari an'anaviy issiqxona tuprog'i aralashmasida yetishtirilgan ko'chatga nisbatan yaxshilanadi.

Xulosa. Biogumus qulay agrofizikaviy va agrokimyoviy hossaga ega bo'lib yopiq tuproq sharoitida bodring ko'chatlari uchun optimal suv havoni yaratib uning an'anaviy issiqxona tuprog'i aralashmasida yetishtirilgan ko'chatga nisbatan morfologik belgilarini yaxshilaydi. Yopiq tuproq sharoitida og'ir metallar bilan ifloslangan tuproq sifatini unga biogumus qo'shish orqali og'ir metallarni organik fazaga biriktirish yo'li bilan yaxshilash mumkin. Ko'chat yetishtirishda biogumusdan foydalanish tuproqdagi kadmiy, kobalt, xrom, mis, nikel, qo'rg'oshin, rux va molibdenning harakatchanligini pasaytiradi. Tuproq aralashmasiga biogumus qo'shish biogumus dozasiga mos ravishda o'simlikning yer usti qismi tarkibidagi molibden, xrom, nikel, rux,

mis miqdorini kamayishiga olib keladi. Yopiq tuproq sharoitida bodring ko'chatlari yetishtirilganda ko'chatning suv havoni va oziq rejimini yaxshilash uchun 1:9 nisbatda biogumus qo'shish taklif etiladi. Bir qism biogumusga 9 qism tuproq qo'shilgan variantda "Avitsena" navli bodring ko'chatining ($n=50$) yerining usti qismidagi bo'yi $200,0 \pm 25,0$ mm ni tashkil etdi va bu ko'rsatgich biogumusiz ekilgan nazorat variantga nisbatan ancha yuqori ko'rsatgichni tashkil etadi.

Tajribalarda turli variantlarda yetishtirilgan ko'chatlardagi barglarni o'rtacha soni o'zaro keskin farqlanmadi. Bir qism biogumusga 4 qism tuproq qo'shilgan variantda bodring ko'chatining ($n=50$) bo'yi sezilarli darajada oshdi va barglarining o'rtacha soni kamaydi. Shunday holat bir qism biogumusga 2 qism tuproq qo'shilgan variantda ham kuzatildi. Biogumus qo'shilgan variantlarda birinchi haqiqiy bargni paydo bo'lishi nazorat variantga nisbatan ikki kunga tezlashganligi qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.: Агропромиздат, 1985. -351 с.
2. Гейслер Т. Производство овощей под стеклом и пленкой/ Пер. с нем. Н.С. Корогорова., Т.П.Шульцева. –М.: Колос, 1979. с.312 с.
3. Обухов А.И., Попова А.А. Баланс тяжелых металлов в агроценозах дерново-подзолистых почв и проблемы мониторинга //Вестник Московского университета, сер.17. Почвоведение. 1992. №3. С.31-39.
4. Обухов А.И., Плеханова И.О. Детоксикация дерново-подзолистых почв, загрязненных тяжелыми металлами: теоретические и практические аспекты // Агрехимия. 1995. -№2. - 108-116.
5. Обухов А.И., Ефремова Л.Л. Охрана и рекультивация почв, загрязненных тяжелыми металлами. Материалы 2-ой Всесоюзной конференции «Тяжелые металлы в окружающей среде и охрана природы». М., 1988. 4.1. С.23-35.
6. Глунцов Н.М., Вендило Г.Г., Овчаренко М.М. и др. Методические указания по определению тяжелых металлов в тепличном грунте и овощной продукции. М., 1996. 19с..
7. Методические указания по определению тяжелых металлов в почвах сельхозугодий и продукции растениеводства. Изд. 2-е. Минсельхоз России, ЦИНАО. М., 1992. 61с.
8. Плеханова И.О., Савельева В.А. Влияние мелиорантов на состояние кобальта в почве и его поступление в растения. Агрехимия. 1997. № 8. С. 68-73.
9. Плеханова. И.О., Кутукова Ю.Д., Обухов А.И. Накопление тяжелых металлов сельскохозяйственными растениями при внесении осадков сточных вод. Почвоведение. 1995. № 12. С. 1530-1536.
10. Алексеев Ю.В. Тяжелые металлы в почвах и растениях. Л.: Агропромиздат, Ленинградское отд-е, 1987. 142 с.

11. Аристархов А.Н. Эколого-агрехимическое обоснование оптимизации питания растений и комплексного применения макро- и микроудобрений в агроэкосистемах: Дис. в виде науч. докл. ... д. б. н. М., 2000. 50 с. Войтович Н.В., Полев Н.А., Останина А.В. Оценка загрязнения почв сельскохозяйственного использования в результате агрогенного воздействия // Почвы Московской области и их использование. М.: Почв. ин-т им. В.В. Докучаева, 2002. Т.1. С. 372–384.
12. Ильин В.Б. Тяжелые металлы в системе почва–растение. Новосибирск: Наука, Сиб. отд-е, 1991. 151 с.
13. Карпова Е.А. Состояние микроэлементов в агроэкосистемах: Тр. биогехимической лаборатории. М.: Наука, 2003. Т.24. С. 6–87.
14. Кутукова Ю.Д. Состояние тяжелых металлов в почвах и накопление их в растениях при внесении осадков сточных вод и мелиорантов: Автореф. дис. ... к. б. н. М., 2001. 25 с.
15. Кутукова Ю.Д., Плеханова И.О. Влияние мелиорантов на состояние тяжелых металлов в почвах и содержание их в растениях при использовании осадков сточных вод в качестве удобрения // Агрехимия. 2002. № 12. С. 68–74.
16. Никифорова Е.М. Эколого-гехимическая оценка загрязнения тяжелыми металлами агроландшафтов Восточного Подмосковья (в связи с внесением осадков сточных вод) // Гехимия ландшафтов и гехография почв. Смоленск, 2002. С.185–210.
17. Плеханова И.О., Кутукова Ю.Д., Обухов А.И. Накопление тяжелых металлов сельскохозяйственными растениями при внесении осадков сточных вод // Почвоведение. 1995. № 12. С.1530–1535.
18. Arunabha Pal.,Rahul Adhikary., Tanmoy Shankar., Ajit Kumar Sahu., Sagar Maitra. 2020. Cultivation of Cucumber in Greenhouse. In: Protected Cultivation and Smart Agriculture. New Delhi Publishers, New Delhi. Pp.139-145.
19. Bairagi, S.K., Singh, D.K. and Ram, H.H. 2013. Analysis of combining ability in cucumber (*Cucumis sativus* L.) through half dialled mating system. *Annals of Horticulture*, 6(2): 308-314.
20. Egel D.S. 2015. Midwest vegetable production guide for commercial growers, USA, pp. 210.
21. Krug H., Liebig H.P., Stützel H. 2002. Gemüseproduktion. Stuttgart, Eugen Ulmer Gmb H & Co, pp. 463.; Kubota Ch, Balliu, A. and Nicola, S. 2013. Quality of planting material. In Good agricultural practices for greenhouse vegetable crops. Principles for Mediterranean climate areas. FAO, Plant Production and Protection Paper 217. Rome, pp. 355–378.
22. Janapriya S., Palanisamy D., Ranghaswami M.V. 2010. Soilless media and fertigation for naturally ventilated polyhouse production of cucumber (*Cucumis sativus*) cv. green long. *International J. Agri., Envi. and Biotech.*, 3(2): 199-205.
23. Savvas D., Gianquinto G., Tüzel Y., Gruda N. 2013. Soilless culture. In Good agricultural practices for greenhouse vegetable crops. Principles for Mediterranean climate areas. FAO, Plant Production and Protection Paper 217. Rome, pp. 303–354.
24. Sharma D., Sharma V.K., Kumari, A. 2018. Effect of Spacing and Training on Growth and Yield of Polyhouse Grown Hybrid Cucumber (*Cucumis sativus* L.) *Int. J. Curr. Microbiol. App. Sci*, 7(5): 1844-1852.
25. Singh B. 2005. Protected Cultivation of Vegetable Crops. Kalyani Publishers, Ludhiana, India. pp. 74-84.
26. Fernandes A., Martinez H.E.P., Oliveira L.R. 2002. Effect of nutrient sources on yield, fruit quality and nutritional status of cucumber plants cultivated in hydroponics. *Horticultura Brasileira*, 20(4): 571-575.
27. Naglaa Taha.,Neama Abdalla., Yousry Bayoumi., Hassan El-Ramady. 2020. Management of Greenhouse Cucumber Production under Arid Environments: A Review. *Env. Biodiv. Soil Security* Vol. 4. Pp.123-136.
28. Liu F., Fu X., Wu G., Feng Y., Li F., Bi H., Ai X. 2020. Hydrogen peroxide is involved in hydrogen sulfide-induced carbon assimilation and photoprotection in cucumber seedlings. *Environmental and Experimental Botany*, 175, 104052. doi:10.1016/j.envexpbot.2020.104052.
29. Khujamshukurov N., Eshkobilov Sh.A., Kuchkarova D.X., Bashirova Yu.J. (a) Influence of biohumus on the content of heavy metals in soil. International conference on trends & innovations in food technology. 24-25 november, 2022 (TIFF-2022). Integral University, Lucknow, India. P.85.
30. Khujamshukurov N., Eshkobilov Sh.A., Normatov A., Kuchkarova D.X., Bashirova Yu.J. (b) Influence of biohumus on the productivity of cucumber plants under greenhouse conditions. International conference on trends & innovations in food technology. 24-25 november, 2022 (TIFF-2022). Integral University, Lucknow, India. P.86.
31. Брызгалов В.А. 1983. Овощеводство защищенного грунта: [По спец.1503 "Плодоовощеводство и виноградарство"] / В.А.Брызгалов, В.Е.Советкина, Н.И.Савинова; Под ред. В.А.Брызгалова. -Л.: Колос: Ленингр. Отделение. –352 с.
32. Касатикова С.М. 2002. Испытания вермикомпоста /С.М.Касатикова, В.А.Касатиков// Агрехимический вестник. №6.–С.29-30.